



IMPROVING ACCOUNTABILITY FOR CRIMES IN THE FIELD OF CYBERCRIME

Shokirov Bekzod Sherzod o'g'li

Master, Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan
Gmail: bekhzodshakiroff@gmail.com Phone number: +998978068000
<https://doi.org/10.5281/zenodo.11541901>

ARTICLE INFO

Received: 04th June 2024
Accepted: 09th June 2024
Online: 10th June 2024

KEYWORDS

Cybercrimes, subject age, hacker, information, computer cyber security.

ABSTRACT

In this article, discusses the fact that the type and weight of cybercrimes committed in the information space are increasing along with the development of information technologies in recent years. In particular, people who misuse the achievements of information technology and try to commit violations by using existing loopholes in the legislation, therefore, by studying foreign experiences, making necessary changes to the legislation or removing unnecessary norms from the legislation. the need to constantly improve our legislation, statistics on cybercrime are provided, and the study is devoted to the issues of improving responsibility for cybercrime, including revising the age of the subject of cybercrime.

KIBERJINOYATCHILIK SOHASIDAGI JINOYATLAR UCHUN JAVOBGARLIKNI TAKOMILLASHTIRISH

Shokirov Bekzod Sherzod o'g'li

Magistr, O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
Gmail: bekhzodshakiroff@gmail.com Tel: +998978068000
<https://doi.org/10.5281/zenodo.11541901>

ARTICLE INFO

Received: 04th June 2024
Accepted: 09th June 2024
Online: 10th June 2024

KEYWORDS

Kiberjinoyatlar, subyekt yoshi, haker, axborot, kompyuter kiberxavfsizlik.

ABSTRACT

Ushbu maqolada so'nggi yillarda axborot-texnologiyalar rivojlanib borishi bilan birgalikda axborot makonida sodir etilayotgan kiberjinoyatlarning turi va salmog'i ham oshib borayotganligi haqida fikr yuritilgan. Jumladan, axborot-texnologiyalarining yutuqlaridan noto'g'ri yo'llarda foydalanuvchi shaxslarining qonunchilikdagi mavjud bo'shliqlardan foydalanib, qonunbuzarliklar qilishga harakat qilishi, shuning uchun ham xorijiy tajribalarni o'rganish orqali qonunchilikka kerakli o'zgartirishlarni kiritish yoki keraksiz normalarini qonunchilikdan chiqarib yuborgan holda doimiy ravishda qonunchiligimizni takomillashtirib borishimiz lozimligi, kiberjinoyatchilikka oid statistik ma'lumotlar keltirilgan, shuningdek tadqiqot



kiberjinoyatlar uchun javobgarlikni takomillashtirish, jumladan, kiberjinoyatlarning subyekt yoshini qayta ko'rib chiqish masalalariga bag'ishlangan.

Butun dunyoda texnologiyalar rivojlanib borishi bilan birgalikda axborot makonida sodir etilayotgan kiberjinoyatlarning turi va salmog'i ham oshib bormoqda.

So'nggi uch yil davomida Oksford universiteti tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarga asosan, Rossiya federatsiyasi eng ko'p kiberjinoyatlar sodir etilayotgan mamlakatlar reytingida yetakchi hisoblanib, ushbu reytingda keyingi o'rinlarda Ukraina, Xitoy, AQSh va Nigeriya davlatlari bormoqda. Ushbu tadqiqotlar davomida kiberjinoyatlarning eng muhim manbalari baholandi hamda tarixda birinchi marta Jahon kiberjinoyat indeksi (WCI, World Cybercrime Index) bo'yicha mamlakatlar reytingi tuzildi. Unda butun dunyo bo'ylab kiberjinoyatlar bo'yicha 92 ta tajribali ekspertlarning baholash natijalariga ko'ra, birinchi o'rinni egallagan Rossiya 58,39 ball, Ukraina – 36,44 ball, Xitoy – 27,86 ball, AQSh – 25,01 ball, Nigeriya – 21,28 ballni qo'lga kiritgan. Global kiberjinoyatlar o'choqlari o'ntaligiga, shuningdek, Ruminiya (14,83 ball), Shimoliy Koreya (10,61 ball), Britaniya (9,01 ball), Braziliya (8,93 ball) va Hindiston (6,13 ball) ham kirdi. Bundan tashqari, 11-20-o'rinlarni mos ravishda Eron, Belarus, Gana, JAR, Moldova, Isroil, Polsha, Germaniya, Niderlandiya va Latviya egalladi¹.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida 2023-yil oxirida IT infratuzilmasini yaxshilash, soha va tarmoqlarni raqamlashtirish yuzasidan o'tkazilgan yig'ilishda ham IT sohasi rivojlangani sari kiberxavfsizlikni ta'minlashning dolzarbligi qayd etib o'tildi. Xususan, O'zbekistonda 2023-yilning 11 oyi davomida 5,5 mingta kiberjinoyat sodir etilgan. Shulardan 70 foizi bank kartalari bilan bog'liq firibgarlik va o'g'irlik jinoyatlari hisoblanadi. Bugungi kunda O'zbekistonda 50 ga yaqin to'lov tizimi mavjud bo'lib, ularning hammasi ham kiberxavfsizlik talablariga javob bermasligi qayd etilib, mutasaddi vazirlik va idoralarga barcha elektron to'lov tizimlari uchun yagona kiberxavfsizlik talablarini ishlab chiqish va ijrosini qat'iy nazorat qilish topshirildi. Ko'rsatiladigan IT xizmatlari hajmini 20 trillion so'mga, eksportni esa 800 million dollarga yetkazish, tarmoqlarda 130 ta axborot tizimini joriy qilish hamda 750 ta davlat xizmatlarini to'liq raqamlashtirish borasidagi rejalarni ishlab chiqish lozimligi belgilandi².

2022–2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasining “Yo'l xaritasi” loyihasi belgilangan bo'lib, unga asosan, kiberjinoyatchilikning oldini olish tizimini yaratish rejalashtirilmoqda va 2023-2026 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining kiberxavfsizlik strategiyasi ishlab chiqilishi belgilangan.

¹ <https://www.ox.ac.uk/news/2024-04-10-world-first-cybercrime-index-ranks-countries-cybercrime-threat-level>

² <https://yuz.uz/uz/news/11-oyda-55-mingta-kiberjinoyat-sodir-etilgan>



Jumladan, axborot maydonidagi kiberhujum va tahdidlarni monitoring qilish tizimi yanada takomillashtirish, shuningdek, kiberjinoatchilik uchun jinoiy javobgarlikni qayta ko'rib chiqish masalasi belgilangan³.

Bundan tashqari, O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqilgan "O'zbekiston — 2030" strategiyasida ham milliy internet makonida kiberxavfsizlikni ta'minlash hamda fuqarolarning internetdan foydalanish borasidagi savodxonligini oshirish lozimligi belgilangan bo'lib, axborotlashtirish va kiberxavfsizlik obyekti, shu jumladan, muhim axborot infratuzilmasi obyektlari kiberhimoyasini ta'minlashda yo'l qo'yilgan kamchiliklarga hamda qonunbuzilishi holatlariga nisbatan javobgarlik normalarini ishlab chiqish lozimligi belgilab berilgan⁴.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining XX¹ bobi bevosita axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyat normalarini o'z ichiga oladi va ushbu bobda axborotlashtirish qoidalarini buzish, kompyuter axborotidan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish, kompyuter tizimidan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish uchun maxsus vositalarni o'tkazish maqsadini ko'zlab tayyorlash yoxud o'tkazish va tarqatish, kompyuter axborotini modifikatsiyalashtirish, kompyuter sabotaji, zarar keltiruvchi dasturlarni yaratish, ishlatish yoki tarqatish uchun jinoiy javobgarlik belgilab qo'yilgan.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, axborot-texnologiyalarining yutuqlaridan noto'g'ri yo'llarda foydalanuvchi shaxslar ham topiladi, ular qonunchilikdagi mavjud bo'shliqlardan foydalanib, qonunbuzarliklar qilishga harakat qilishadi. Shuning uchun ham xorijiy tajribalarni o'rganish orqali qonunchilikka kerakli o'zgartirishlarni kiritish yoki keraksiz normalarini qonunchilikdan chiqarib yuborgan holda doimiy ravishda qonunchiligimizni takomillashtirib borishimiz lozim.

Statistik ma'lumotlarga qaraganda, 2022-yilning mart-avgust oylari davomida har haftada O'zbekiston hududiga 23-180 mln. AQSH dollarga teng miqdorda kripto-aktivlar kirib, 20-160 mln. AQSH dollarga teng miqdordagi kripto-aktivlar chiqib ketgan⁵.

Shu sababli, joriy yilning 19-yanvarida O'RQ-899-sonli "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslariga hamda O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni qabul qilinib, Jinoyat kodeksining axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarga doir XX¹ bobiga yangi ikkita modda qo'shib, kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi qonunchilikni buzganlik (Jinoyat kodeksi 278⁸-moddasi) va mayning faoliyatini qonunga xilof ravishda amalga oshirganlik (Jinoyat kodeksi 278⁹-moddasi) uchun jinoiy javobgarlikni nazarda tutuvchi yangi jinoiy normalarni Jinoyat kodeksiga kiritish orqali jinoyat qonunchiligimizdagi ushbu sohada mavjud bo'lgan bo'shliqlar to'ldirildi.

Bugungi kunda kiberjinoiyatlarning boshqa turdagi jinoyatlardan farqli jihati shundan iboratki, kiberjinoiyat yoki kiberterrorizm subyekti yosh tanlamaydi, masalan, O'zbekiston jinoyat kodeksining 17-moddasiga asosan, Jinoyat kodeksining axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarga doir XX¹ bobidagi kiberjinoiyatlar uchun subyekt yoshi 16 yosh etib

³ <https://www.lex.uz/uz/docs/-5841063>

⁴ <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>

⁵ <https://senat.uz/articles/post-1207>



belgilangan.

Biroq, bugungi kunda butun dunyodagi aksariyat yoshlar dasturlashga qiziqishadi va yoshlar orasida ko'plab tajribali va turli kiberjinoyatlarni ham sodir etish imkoniyatiga ega bo'lganlari ko'pchilikni tashkil qiladi.

Masalan, shu yili 14 yoshli Kairan Quazi "Starlink sun'iy yo'ldosh internet dasturlarini ishlab chiqish bo'limiga ishga qabul qilindi.

U yaqinda Kaliforniyadagi Santa Klara universiteti muhandislik maktabida bakalavr darajasini oldi va maktab tarixidagi eng yosh bitiruvchiga aylandi. Bundan tashqari, Kairan Kvazi yosh bo'lishiga qaramasdan, bundan oldin "Intel" kompaniyasida katta tajriba to'plagan. Yosh mutaxassis 2 yoshidayoq to'liq jumlar bilan gapira boshlagan va 9 yoshida u maktab o'quv dasturidan oldinda edi⁶.

Bundan tashqari, yurtimizda 2022-yil 2-noyabr kuni "MarshGolden" guruhi Oliy Majlis Senati saytiga kiberhujum uyushtirganda 6 kishi bo'lib, ularning barchasi 14 yoshdagi o'smirlar bo'lishgan. Yosh hackerlar bungacha ham bir necha davlat organlari saytlariga, jumladan, "Kundalik.com" saytiga ham buzib kirishganini tan olishgan. Intervyu davomida yosh hacker "Senat.uz" rasmiy saytiga hujumini ham o'zlari uyushtirganini tan olgan. Ular mutasaddilarga saytning xavfsizlik tizimidagi zaiflikni ko'rsatib qo'yish maqsadida Senat rasmiy saytiga kiberhujumini amalga oshirganliklarini aytishgan⁷.

Senat saytini buzib kirib shov-shuv bo'lgan 14-15 yoshli bolalar darsdan tashqari vaqtlarida O'zbekiston kiberxavfsizlik markazida ishlaydi. Ular Ozarboyjonda o'tkazilgan kiberxavfsizlik musobaqasida 1-o'rinni egallab qaytgan. Guruh sardori bu sohani 10-11 yoshidan o'rganishni boshlab, 14 yoshida kibernetikka aylangan⁸.

Xulosa qilganimizda, hozirda kiberjinoyatlarni sodir etadigan subyektlar orasida yoshlar ko'pchilikni tashkil etayotganini hisobga olsak, kiberjinoyatlar uchun subyekt yoshi masalasini qayta ko'rib chiqishimiz lozim bo'ladi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi
2. O'zbekiston Respublikasi "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi Qonuni
3. O'zbekiston Respublikasi 2022-2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasining "Yo'l xaritasi"
4. O'zbekiston Respublikasi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi
5. Ахборот технологиялари соҳасидаги жиноятлар(кибержиноятлар) - турлари, квалификацияланиши ва уларга нисбатан тергов ҳаракатларини ўтказиш тақикаси - ўқув қўлланма / Г.Ф.Мусаев [ва бошқ]. — Ташкент: Baktria press, 2020. 220-б.
6. Salayev N.S., Ro'ziyev R.N Kiberjinoyatchilikka qarshi kurashishga oid milliy va xalqaro standartlar. Monografiya .,-T.: TDYU, 2018, 139-b.

⁶ <https://habr.com/ru/news/741172/>

⁷ <https://kun.uz/news/2022/11/05/senat-saytini-buzib-kirganlar-14-yoshdagi-osmirlar-ekani-malum-boldi?q=%2Fuz%2Fnews%2F2022%2F11%2F05%2Fsenat-saytini-buzib-kirganlar-14-yoshdagi-osmirlar-ekani-malum-boldi>

⁸ <https://kun.uz/kr/news/2023/08/10/oz-sohamda-eng-kuchli-mutaxassis-bolishni-xohlayman-senat-saytini-buzib-kirgan-15-yoshli-haker-bilan-suhbat>



7. Anorboyev A.U Kiberjinoyatchilik, unga qarshi kurashish muammolari va kiberxavfsizlikni ta'minlash istiqbollari. Monografiya -T.: Milliy gvardiya instituti 2020.-324 b.